

JEYN OSTIN ASARLARIDA AYOLLARGA XOS QARASH VA UNING BADIY TALQINI

Bahriddinova Shirin

Namangan davlat chet tillari instituti 4-bosqich talabasi

Ne'matjonov Sharifjon Rustamjonovich

NamDChTI katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jeyn Ostin romanlarida ayollarning jamiyatdagi o'рни va ayollarga xos dunyoqarash tahlil qilinadi. Jeyn Ostin o'z asarlarida ayol qahramonlarning ijtimoiy va shaxsiy hayotini markaziy o'ringa qo'yadi. Tadqiqotda Ostin davrida ayollarning yashash tartibi, ijtimoiy cheklovlar va iqtisodiy cheklanishlar qahramonlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Jeyn Ostin, ingliz adabiyoti, ayollik pozitsiyasi, ayol obrazi, ijtimoiy mavqe, realism, feminist talqin.

Аннотация: В данной статье рассматриваются положение женщин в обществе и присущий им взгляд на мир в романах Джейн Остен. Автор уделяет центральное внимание социальной и личной жизни своих героинь. В исследовании раскрывается, каким образом образ жизни женщин эпохи Остен, их социальные и экономические ограничения отражаются на судьбах персонажей.

Ключевые слова: Джейн Остен, английская литература, женская позиция, женский образ, социальный статус, реализм, феминистская интерпретация.

Abstract: This article explores women's role in society and the characteristic feminine worldview in Jane Austen's novels. Austen consistently places her female protagonists' social and personal experiences at the forefront of her works. The study researches how the norms of women's everyday life in Austen's era, how social restrictions and economic limitations shape the destinies and internal development of her characters.

Keywords: Jane Austen, English literature, feminine perspective, female representation, social position, literary realism, feminist impression.

Jeyn Ostin XIX asr boshlarida ayollarning jamiyatdagi mavqei, huquqlari va imkoniyatlariga yangi qarashlarni shakllantirishda muhim rol o'ynagan ingliz romanchiligining klassik vakilasi hisoblanadi. U yashagan davrda ingliz jamiyatida ayollarning vazifasi faqatgina turmushga chiqish va farzand tarbiyasidan iborat edi. Ayollar uchun ta'lim olish imkoniyatlari cheklangan bo'lib, mustaqil ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanish deyarli mumkin emas edi. Har doim erkaklarga bo'ysungan holda yashashga majbur, hattoki, yozish huquqiga ham ega emasdilar. Shu sababdan yozuvchi o'z kitobini anonim tarzda chop ettirgan va "Andisha va g'urur" asarida hikoya markaziga ayol qahramonni qo'ygan birinchi adibalardan biri bo'lgan.

Jeyn Ostin o‘z romanlarida ayollarning shaxs sifatida o‘zini ifoda etishi, mustaqil qarorlar qabul qilishi va erkin tanlov qilish huquqini keng yoritdi. Uning romanlari realizm janriga asoslangan bo‘lib, realizm o‘sha davr jamiyati, insonlarning chinakam hayoti va hissiyotlarini tasvirlab bergandi. Uning asarlari aslida o‘sha davrdagi jamiyatga yo‘llangan bir tanqid sifatida yozilgan bo‘lib, ularda ayol qahramonlar ijtimoiy cheklolarga qaramay, kitob o‘qiydigan, erkin fikrlovchi, o‘z qarash va fikrlariga ega shaxs sifatida tasvirlanadi. Yozuvchining asarlarida ayol obrazi jamiyat taraqqiyoti, gender tengligi va inson shaxsiyati masalalarini yoritishda muhim burilish nuqtasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Jeyn Ostinning o‘zi ham yetakchilik salohiyatiga ega bo‘lgan, shu bois o‘z qahramonlari timsolida o‘z xarakteri va qobiliyatlarini ko‘rishni istagan. U Elizabet Bennet, Emma Vudxaus, Enn Elliot, Elinor Dashiud va Ketrin Morlend kabi qahramonlar misolida o‘zining yetakchilik salohiyatini ko‘rsatishni maqsad qilgan.

Ayol yozuvchi sifatida Jeyn Ostinning dunyoni faqat ayol nigohi bilan kuzatishni tanlagani, avvalo, uning kuzatuv maydonini ma‘lum darajada chekladi. Chunki Jeyn Ostin o‘z asarlarida tasvirlagan yosh qizlar va turmush qurgan ayollar asosan uy-ro‘zg‘or va sokin hayot tarziga majbur qilingan bir muhitda yashar edi. Shu sababli, 1871-yilda shoir va tarjimon Edvard Fitsjerald Jeyn Ostin haqida kibr bilan: “U hech qachon uydagi mehmonxonadan tashqariga chiqmaydi,” deb yozganida, uning bu tanqidi haqoratdan ko‘ra ko‘proq unga maqtov bo‘ldi. Chunki Ostin o‘z asarlarida aynan ayol nigohini uyg‘un tarzda berishni maqsad qilgan ekan, u nigohni ayollar eng ko‘p vaqt o‘tkazadigan joy, ya‘ni shunday ichki makonda joylashtirishi tabiiy edi.

Bunday sharoitda, Jeyn Ostin asarlarini o‘qiyotgan kitobxon shunchaki yashash makonlariga e‘tibor qaratishga emas, balki u yerda yashovchilarning nuqtai nazarini qabul qilishga intiladi. Qahramonning uyidan tashqarida sodir bo‘ladigan barcha voqealar ko‘pincha uy ichidagi suhbatlar orqali tahlil qilinadi va izohlanadi, shuningdek, voqealar qahramonning shaxsiy va oilaviy hayotidagi ahamiyatiga muvofiq qisqartiriladi. Masalan, qo‘shnining uyida ball o‘tkazilgan bo‘lsa, bu ball haqida keyingi suhbatlarda ma‘lumot beriladi; bu esa avvalgi voqealarni yo‘q qilmasdan, ularni qahramonning shaxsiy va oilaviy hayotiga moslashtiradi.

Jeyn Ostin asarlarida faqat erkaklar ishtirok etadigan sahnalar mavjud emas. Chunki yozuvchi uchun ayol hayoti, uning ichki kechinmalari, jamiyatdagi mavqei va shaxsiy qarashlari adabiy voqelikning ajralmas qismidir. Ostin romanlarida ayollar nafaqat syujetning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, balki ijtimoiy munosabatlar markazida turuvchi mustaqil fikr, o‘ziga xos qarash va sezgir nigoh sohibalari sifatida gavdalanadi. Shuning uchun ham uning asarlarida erkaklar dunyosi hech qachon ayollar olamidanda ajralib, alohida tasvirlanmaydi; aksincha, ular o‘zaro muloqot, munosabat va qarama-qarshiliklar orqali yanada boyitilib, to‘laqonli ma‘no kasb etadi.

Jeyn Ostin patriarxal jamiyatdagi suiiste‘molliklarga befarq bo‘la olmas edi. Biroq, u o‘zi yashagan davrda institutlarni tanqid qilish mamlakatning urushdagi muhim manfaatlarini xoinona ravishda buzish bilan barobar ekanligini bilgan holda,

muammolarni faqat ko‘tarish va odamlarning ongini uyg‘otish bilan cheklanardi; mavjud tartibga noqulay bo‘lgan yechimlarni taklif qilmas edi. Shu bois, tanqidchilar ta’kidlashicha, uning romanlaridagi dunyoqarash erkak hukmronligiga nisbatan hech qachon befarq bo‘lmagan. U ayollarning nuqtai nazarini qabul qilishga intiladi, shunda ular duch kelayotgan adolatsizlik hissini yaxshiroq yetkazish mumkin bo‘lgan.

Shu bois Ostin romanlarida ayollarga xos qarashning badiiy ifodasi nafaqat adabiy hodisa, balki ijtimoiy fikr va gender ongining shakllanishida muhim bosqich sifatida ko‘riladi. Tadqiqot quyidagi usullar asosida olib borildi:

1. Gender nazariyasi asosida tahlil: Ayollarning jamiyatdagi o‘rni, huquqi, tanlov erkinligi va patriarxal qadriyatlarni yoritishi ko‘rib chiqildi. Ostin asarlarida ayollarning ijtimoiy o‘rni, ularning imkoniyatlari va cheklovlari ko‘plab jihatdan patriarxal tizim, ya‘ni, meros huquqi, nikoh va moliyaviy qaramlik orqali belgilanadi.

2. Kontekstual yondashuv: Ostin yashagan davrning ijtimoiy-madaniy muhiti, gender rollari va ijtimoiy me‘yorlar tahlil qilindi. Nikoh ko‘pincha ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlik vositasi sifatida qaralgan. Bu nuqta Ostin asarlarida turmushga chiqish motivlarini va “foydali turmush” tushunchasini izohlashga yordam beradi. Bundan tashqari, ayollar uchun rasmiy ta‘lim imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, “social polish” (ijtimoiy muomala) va xulq-atvorning o‘rnatilishi muhim edi.

Ostin o‘z romanlarining diqqat markaziga doimo ayollarning ichki dunyosini qo‘yadi. Qahramonlar ko‘pincha uy, oilaviy uchrashuvlar kabi “ichki makon”da faoliyat yuritadi, ammo aynan shu makonlarda ularning ruhiy o‘sishi, kuzatuvchanligi va ijtimoiy fikri shakllanadi. Masalan, Elizabeth Bennetning mulohazalari yoki Elinor Dashwoodning ratsionalligi ayol nigohining kuchini ko‘rsatadi.

Ostin qahramonlari jamiyat tomonidan qo‘yilgan me‘yorlarga to‘liq bo‘ysunmaydi. Ular mustaqil fikr yuritadi, o‘z qadriyatlari asosida tanlov qiladi, jamiyat bosimiga qaramay, o‘z baxtini izlashga jur‘at qiladi. Bu ayniqsa “Andisha va g‘urur” asaridagi Elizabeth yoki “Emma”dagi Emma Woodhouse xarakterida yaqqol ko‘rinadi.

Ostin jamiyatdagi gender nomutanosibligini yumor, kinoyaga boy va nozik badiiy vositalar orqali fosh qiladi. Masalan, meros ayollarga berilmasligi, ayollarning iqtisodiy jihatdan erkakka bog‘liqligi, “foydali turmush” tushunchasi, ayollar ta‘limining cheklanganligi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ostin bu tizimni ochiqcha tanqid qilmaydi, biroq ayolning ichki noroziligi va intellektual kuchi orqali ijtimoiy me‘yorlarni qayta talqin qiladi. U romanlarida ayollarga xos sezgirlik, axloqiy poklik, kuzatuvchanlik, aql va hissiyot muvozanati fundamental qadriyat sifatida ko‘rsatiladi. Bu ayollikni zaiflik emas, balki kuchli axloqiy va ijtimoiy pozitsiya sifatida talqin qiladi.

Jeyn Ostin asarlari XIX asrda ayollar mavqei cheklangan bo‘lsa ham, ular shaxs sifatida o‘zini anglashga intilganini ko‘rsatadi. U o‘z qahramonlarini jamiyat tomonidan belgilangan “ayollik standartlari” ichida tasvirleydi, ammo ularga ma‘naviy mustaqillik va axloqiy kuch beradi. Shuning uchun uning romanlari gender adabiyotida o‘ziga xos burilish yasagan, keyingi ayol yozuvchilar ijodiga ta’sir

ko'rsatgan va zamonaviy feminizmning dastlabki badiiy shakllaridan biri sifatida qaraladi

Jeyn Ostin o'z qahramonlarining shaxs sifatida o'sishi, mustaqil fikri va ijtimoiy cheklovlarga qarshi ichki kurashini tasvirlar ekan, ayollikning yangi, intellektual, axloqiy va mustaqil modelini yaratadi. Jeyn Ostin romanlaridagi ayol obrazi jamiyatdagi gender tengligi masalalarini yoritishda muhim tarixiy va adabiy ahamiyatga ega bo'lib, ayollarning shaxsiy erkinlikka bo'lgan huquqini asoslovchi badiiy manzara yaratadi. Shuningdek, u o'z romanlari orqali yaratgan ayol qahramonlari va ularning jamiyatdagi mavqei orqali bugungi jamiyatga ham ta'sir ko'rsatadi. Uning asarlarida boylik va ijtimoiy tabaqa ayollar hayotiga qanday ta'sir qilgani yaqqol aks etadi. U jamiyatning ayoldan nimani kutishini ko'rsatish bilan birgalikda ayollarda mavjud kuchli jihatlarni ham yorqin tasvirlaydi. Umuman olganda, Jeyn Ostin o'z romanlarida o'sha davr jamiyatida ayolning o'rni naqadar murakkab bo'lganini tasvirlaydi. Jamiyat ayollardan ijtimoiy me'yorlarga bo'ysunishni va boshqalarning markazida turishni talab qilganiga qaramay, adiba yaratgan qahramonlar o'z taqdirlarini o'zlari belgilashga intiladilar. Chunki ular mustaqil qaror qabul qila oladigan, ma'naviy boy, bilimli, o'ziga ishongan va bag'rikeng insonlar sifatida gavdalantirilgan. Ayolning ichki kuchi esa Jeyn Ostin ijodining eng asosiy mavzularidan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Osten J. Andisha va g'urur. Oxford Universiteti nashriyoti. 2008-yil
2. Poovey, M. Mukammal xonim va ayol yozuvchi: Meri Wollstonecraft, Meri Shelli va Jeyn Osten asarlarida mafkura va uslub munosabati. Chikago universiteti nashriyoti. 1984-yil
3. Osten J. Emma. Wordsworth nashrlari, 1994 yil.
4. Jonson, C. Jeyn Osten: ayollar, siyosat va roman. Chikago universiteti matbuoti, 1988 yil.
5. Butler, M. Jeyn Osten va g'oyalar urushi. Oksford universiteti nashriyoti, 1990 yil.